



XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2022 - yil 5 - yanvar

VI-50-1-7-92-K/22

Oqdaryo tuman hokimligi

Oqdaryo tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar hamda mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun 2022-yil uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda PF-6121-sonli “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasi hamda 437-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, elliginchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Moliya vazirligining 06/04-01-32-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 19/10-68220-sonli 2021-yil 8-noyabrda qo‘shma xatlari, viloyat Moliya bosh boshqarmasining 2021-yil 9-noyabrda 01/02-38/845-sonli xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq tuman uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar (bundan dehqon xo‘jaligini

yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar mustasno) bo‘yicha mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi yuqoridagi 1-2-ilovalar bilan belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 1.2 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga egaligi ko‘rsatib o‘tilsin.

5. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari (A.Majidov) “Oqdaryo ovozi” gazetasi (Y.Muhammadiyev) ommaviy axborot vositalari orqali 2022-yil byudjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari (M.Ergasheva, J.Sadullayev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



Adilova D. I.

Халқ депутатлари Оқдарё туман
Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-50-1-7-92-К/22-сон қарорига
1-илова

**2022-yil tumanda joylashgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha
yer solig'ini hisoblash uchun oshiruvchi yoki kamaytiruvchi stavkalar**

T/R	Hududlar nomi	Kamaytiruvchi va oshiruvchi stavka
1.	A.Temur MFY	1.00
2.	Yangiobod MFY	1.00
3.	Mustaqillik MFY	1.50
4.	Navro'z MFY	1.50
5.	Loyish MFY	1.50
6.	Uzunqishloq MFY	1.00
7.	Galaravot MFY	1.00
8.	Yangiqo'rg'on MFY	1.50
9.	Sug'onchi MFY	1.50
10.	Oqdaryo MFY	1.00
11.	Pichoqchi MFY	1.00
12.	Uchtepa MFY	1.00
13.	Yangiqishloq MFY	1.00
14.	Avazali MFY	1.00
15.	Oytamg'ali MFY	1.00
16.	Istiqlol MFY	1.00
17.	Turon MFY	1.00
18.	Yangihayot MFY	1.00
19.	Pulatdarhon MFY	1.50
20.	Taraqquiyot MFY	1.50
21.	O'zbekiston MFY	1.00
22.	Yangiravot-2 MFY	1.00
23.	Olchintepa MFY	1.00
24.	Kumushkent MFY	1.00
25.	Bobur MFY	1.00
26.	Miyonqol MFY	1.00
27.	Primkent MFY	1.00
28.	Temirak MFY	1.00
29.	Yangiravot-1 MFY	1.00
30.	Paxtabod MFY	1.00
31.	Boshdarhon MFY	1.50
32.	Bozorjoy MFY	1.50
33.	A.Navoiy MFY	1.00
34.	Dahbed MFY	1.50
35.	Chorbog'-2 MFY	1.00

**Tuman bo'yicha yuridik shaxslar uchun qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun
1 ga uchun bazaviy soliq stavkasi 35 350 000 so'm belgilangan*

Халқ депутатлари Оқдарё туман
Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-50-1-7-92-К/22-сон қарорига
2-илова

2022-yil uchun shahar va tumanlar uchun jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan yerlar bo‘yicha yer solig‘ini hisoblashda qo‘llaniladigan oshiruvchi yoki kamaytiruvchi stavkalar (dehqon xo‘jaligi yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlardan tashqari)

T/R	Hududlar nomi	Kamaytiruvchi va oshiruvchi stavka
1.	A.Temur MFY	0.80
2.	Yangiobod MFY	1.20
3.	Mustaqillik MFY	1.20
4.	Navro‘z MFY	1.20
5.	Loyish MFY	1.20
6.	Uzunqishloq MFY	0.80
7.	Galaravot MFY	0.80
8.	Yangiqo‘rg‘on MFY	1.20
9.	Sug‘onchi MFY	1.20
10.	Oqdaryo MFY	0.80
11.	Pichoqchi MFY	1.20
12.	Uchtepa MFY	0.80
13.	Yangiqishloq MFY	0.80
14.	Avazali MFY	0.80
15.	Oytamg‘ali MFY	0.80
16.	Istiqlol MFY	0.70
17.	Turon MFY	0.80
18.	Yangihayot MFY	0.80
19.	Pulardarhon MFY	1.20
20.	Taraqkiyot MFY	1.20
21.	O‘zbekiston MFY	1.20
22.	Yangiravot-2 MFY	0.80
23.	Olchintepa MFY	0.80
24.	Kumushkent MFY	1.20
25.	Bobur MFY	1.20
26.	Miyonqol MFY	0.70
27.	Primkent MFY	0.80
28.	Temirak MFY	1.20
29.	Yangiravot-1 MFY	0.80
30.	Paxtabod MFY	1.20
31.	Boshdarhon MFY	1.20
32.	Bozorjoy MFY	1.20
33.	A.Navoiy MFY	1.20
34.	Dahbed MFY	1.20
35.	Chorbog‘-2 MFY	0.80

**Tuman bo'yicha 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi 323.2 so'm etib belgilangan.*